Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
1-bosqich Maktabgacha ta'lim yo‘nalishi talabalariga 1-semestr uchun
« Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatgta o‘rgatish » fanidan yakuniy nazorat savollari
Imtihon shakli: yozma-og'zaki

TASDIQLAYMAN
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i
_____ I.Madatov
2026-yil 14-oktabr

№	Mavzu	1-QISM “OSON SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning kirish qismidan asosan nazariy savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’ladi).	2-QISM “ODDIY SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 1-rejasidan asosan mulohazaviy savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’ladi).	3-QISM “MURAKKAB SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 2-rejasidan asosan qoidalar, teoremalar, kabi savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi).	4-QISM qism “MURAKKAB SAVOLLAR 2” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning 3-rejasidan asosan tendensiyalar, paradigmalar, konsepsiyalar kabi savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi).	5-qism “QIYIN SAVOLLAR” deb nomalanadi va semestrda o‘qitilishi rejalashtirilgan mavzularning xulosa yani yakuniy qismidan asosan talabani mustaqil fikrlashga, mavzuni to’liq anglashga yo’naltiradigan savollardan iborat bo’ladi (tayanch iborasi bo’lmaydi).
1	**Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish fanining predmeti, maqsadi, vazifalari hamda maktabgacha ta’lim tizimidagi o‘rni.**	Maktabgacha ta’lim deganda bolalarning qanday ehtiyojlari va xususiyatlarini inobatga olgan holda ma’naviy me’yorlar va hayotiy tajribani egallashiga qaratilgan yaxlit jarayon tushuniladi? T.I:maktabgacha ta’lim,yaxlit tizim	Nima uchun Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni sahnalashtirish faoliyatiga o‘rgatish ularning nafaqat badiiy qobiliyatini, balki umumiy ijodiy tafakkurini yuksaltirishga xizmat qiladi deb hisoblaysiz? T.I: sahnalashtirish faoliyati, sahna	Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish jarayonida ularda mehnat madaniyati, resurslarni tejash hamda ish joyini tartibli saqlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha belgilangan asosiy qoidalar va vazifalar nimalardan iborat?	Teatr va sahnalashtirish faoliyati shakllarining zamonaviy pedagogik konsepsiyasiga ko‘ra, bolalarning dramatizatsiya hamda rejissyorlik o‘yinlaridagi "rassom" va "ssenariy muallifi" sifatidagi rollari qanday tamoyillar va tendensiyalar asosida farqlanadi?	Tarbiyachi sahnalashtirish va teatr faoliyatida aktyorlik va rejissyorlik mahoratini namoyon etishi bilan birga bolaga xato qilishdan qo‘rqmaslik hamda erkin fikrlash imkonini qanday qilib bir vaqtning o‘zida ta’minlashi mumkin? Buni amaliy misolda tahlil qiling.
1		Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning asosiy maqsadi bolalarni qaysi ta’lim bosqichiga tayyorlash va ularni har tomonlama rivojlantirishdan iborat? T.I: maktabga tayyorlov, rivojlantirish	O‘yin va sahnalashtirish faoliyati kichkintoyning tabiiy ehtiyojlariga mos kelishi sababli, u o‘quv va tarbiya materialini yengil va quvnoqlik bilan o‘zlashtiradi degan fikrni qanday asoslaysiz? T.I: o‘yin va tayanch ehtiyojlar	Tarbiyachi bolalarning ijodiy faoliyati bosqichlarini to‘g‘ri boshqarishi uchun badiiy obraz yaratish vositalari va bolalar ijodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari haqida qanday bilim hamda talablarga ega bo‘lishi kerak?	Kichik, o‘rta va katta maktabgacha yosh davrlarida rejissyorlik hamda teatr-sahnalashtirish o‘yinlari shakllarining rivojlanish va murakkablashib borish tendensiyalari qanday xususiyatlarga ega?	Teatr-sahnalashtirish faoliyatida bolalarning doimiy "artist" va "tomoshabin" guruhlariga ajralib qolishining salbiy pedagogik oqibatlarini asoslang hamda guruhda tenglik va motivatsiyani saqlash uchun qanday yechimlarni taklif qilasiz?
1		Maktabgacha ta’lim jarayonida bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi nima deb ataladi? T.I: integratsiya,ta’lim sifati	Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish fanining asosiy maqsadi sifatida MTT tarbiyachilariga amaliy bilim berish ko‘rsatilgani nima sababdan muhim hisoblanadi? T.I: amaliy bilim va ko‘nikmalar	Bolalarning tasviriy va sahnaviy faoliyatida ilgari o‘zlashtirilgan amaliy usullarni yangicha mazmunda va yangi vositalar orqali qo‘llash jarayonining amaliy qoidalari va bosqichlari qanday amalga oshiriladi?	Bolalar bog‘chasida mini-teatrlarni, rivojlantiruvchi markazlarni hamda obyekt-o‘yin muhitini dinamik ravishda o‘zgartirish va boyitish zamonaviy maktabgacha ta’lim paradigmasida qanday o‘rin tutadi?	Teatr faoliyati boladagi uyatchanlik, tortinchoqlik va muloqotdagi to‘siqlarni yengib o‘tishida eng samarali vosita ekanligini bolaning shaxsiy "Men" konsepsiyasi hamda emotsional-ijtimoiy rivojlanishi nuqtai nazaridan baholang.
1		Bolaning o‘zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi hamda uning refleksiv faoliyatining bir qismi qanday nomlanadi? T.I: «Men» konsepsiyasi,o‘zlikni anglash	Ertak va hikoyalarni kichik rollar orqali gavdalantirish bolaning ma’naviyati hamda shaxs sifatidagi o‘z-o‘zini anglashi rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz? T.I: badiiy va ma’naviy rivojlanish	MTTda bolalarni aktyorlik va qo‘l mehnatiga tayyorlashda, turli atributlar va vositalar tayyorlash orqali ularda kasbga yo‘naltirish hamda mehnatga muhabbat tarbiyalashning pedagogik vazifalari tizimini tushuntirib bering.	Turli teatr turlari (barmoq teatri, stol usti teatri, flanelograf, soyalar va bibabo teatri) orqali bolalarning musiqiy va sahnaviy faoliyat shakllarini integratsiyalash tendensiyasining ilmiy-pedagogik mohiyati nimada?	Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligida bolani teatr-sahnalashtirish faoliyatiga jalb etish orqali uning estetik va madaniy dunyoqarashini shakllantirish bo‘yicha o‘z shaxsiy pedagogik konsepsiyangizni va xulosangizni bayon eting.
2	**Maktabgacha ta’lim tizimida sahnalashtirish faoliyatining mazmuni, pedagogik imkoniyatlari va bola rivojlanishidagi ahamiyati.**	Maktabgacha ta’lim muassasalarida teatrlashtirilgan faoliyat jarayonida bolaga o‘zini qaysi kasb egalari, jumladan, rejisser, musiqiy ijrochi hamda qaysi ikki asosiy yo‘nalishda ko‘rsatish imkoniyati beriladi? T.I: dekorator va akter	Har bir insonning bolaligi rolli o‘yinlar asosida o‘tishi unga kattalarning hayotiy qonun-qoidalarini anglashni o‘rgatadi degan fikrni teatrlashtirilgan faoliyat misolida qanday izohlaysiz? T.I: rolli o‘yinlar va ijtimoiy qoidalar	Teatrlashtirilgan faoliyatni rivojlantirish tizimi bosqichma-bosqich amalga oshirilishida adabiy va folklor asarlarni ijodiy his etish hamda maxsus bilimlarni asosiy va qo‘shimcha rollar nuqtai nazaridan o‘rganish qoidalari qanday talablarni bajarishni taqozo etadi?	Maktabgacha ta’lim muassasalarida teatrlashtirilgan faoliyatni "umumlashtiruvchi faoliyat" sifatida baholash va uni pedagogik jarayonning barcha yo‘nalishlariga kunlik singdirish konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari qanday?	Tarbiyachi har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, tortinchoq bolalarni ham sahnada o‘zini erkin tutishiga va ijodiy imkoniyatlarini ko‘rsatishiga erishish uchun qanday o‘ziga xos yondashuvlarni qo‘llashi lozimligini mustaqil tahlil qiling.
2		Teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirishda janr va mavzuning turli-tumanligi hamda uni pedagogik faoliyatning barcha yo‘nalishlariga qanday jarayon sifatida doimiy singdirish lozim? T.I: janr,integratssiya	Dekoratsiya hamda kostyumlarni tayyorlash jarayoni bolalarda chizish, yasash va tikish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga ularning ijodiy faolligiga qanday turtki beradi deb o‘ylaysiz? T.I: kostyum va texnik faoliyat	Turli yosh guruhlarida (xususan, 2-kichik va o‘rta guruhlarda) teatrlashtirilgan o‘yinlarni tashkil etishda tarbiyachining oldiga qo‘yilgan asosiy pedagogik vazifalar va ularni amalga oshirish qoidalari nimalardan iborat?	Bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda (barmoq teatri, stol teatri, dramatizatsiya va rejissyorlik o‘yinlaridan tortib musiqali-ritmik pesalargacha) rivojlanish tendensiyalarining pedagogik paradigmada tutgan o‘rni nimadan iborat?	Maktabgacha ta’lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyatni tashkil etishda ota-onalar va bog‘cha xodimlarining faol hamkorligini ta’minlash bola shaxsining kamol topishida qanday hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini baholang.
2		Teatrlashtirilgan o‘yinlar davomida bolalarda atrof-olam haqidagi tushunchalar kengayishi bilan birga ularning qaysi jismoniy-fiziologik ko‘nikmalari mukammallashib boradi? T.I: motorika va koordinatsiya	Teatrlashtirilgan faoliyat bolalarni milliy an’analar, adabiyot va san’at turlari bilan tanishtirish orqali jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish modelini yaratishga qanday xizmat qiladi? T.I: milliy qadriyatlar va madaniyat	Katta va tayyorlov guruhlarida teatrlashtirilgan o‘yin materiallarini murakkablashtirish, shu jumladan, bolalar operasi, musiqali pesalar va inssenirovka-o‘yinlarni joriy etish jarayonida qanday uslubiy qoidalar qo‘llaniladi?	Teatrlashtirilgan faoliyat jarayonida nutqning barcha shakllari, funksiyalari, komponentlari hamda hissiy-irodaviy sohani integratsiyalashgan holda rivojlantirish tendensiyasi qanday amalga oshiriladi?	Teatrlashtirilgan o‘yinlar va sahna ko‘rinishlari bolalarda jamoada ishlash, o‘rtoqlari uchun javobgarlikni his qilish hamda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda qanday noyob imkoniyatlarni ochib berishini asoslab bering.

2		Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar vaqtida bolalarning so‘z boyligi oshishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishi bilan bir qatorda nutqning qaysi ovoziy va ohangdorlik xususiyatlari faollashadi? T.I: tembr va intonatsiya	Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar asar qahramonlarining holatiga kirishga harakat qilish orqali bolaning ichki kechinmalari va emotsional rivojlanishiga qanday ta'sir ko‘rsatadi? T.I: emotsional faoliyat va ichki kechinmalar	Tarbiyachining teatrlashtirilgan faoliyatni boshqarishdagi aktyorlik va rejissyorlik mahorati qoidalariga ko‘ra, bolalarni "artist" va "tomoshabin" deb keskin bo‘lib qo‘ymaslik hamda xato qilish qo‘rquvini bartaraf etish talablari qanday bajariladi?	Bolalarda mustaqil ijodkorlik, o‘ziga ishonch tuyg‘usini shakllantirish va o‘z "Men"ini boshqalarga taqdim etish qobiliyatini zamonaviy teatr pedagogikasi konsepsiyalari asosida takomillashtirish tendensiyalarini tushuntirib bering.	Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama uyg‘un rivojlanishida teatr faoliyatini integratsiyalashgan san’at turlari (musiqa, adabiyot, tasviriy san’at) bilan birgalikda olib borishning kelajakdagi samaradorligi haqida o‘z xulosalaringizni bayon eting.
3		Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlarini inobatga olgan holda ma’naviy me’yorlarning shakllanishini ta’minlovchi yaxlit jarayon nima deb ataladi? T.I: Maktabgacha ta’lim, ta’lim muassasasi	Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslab tashkil etishda qanday vazifalarni bajaradi deb o‘ylaysiz? T.I : Davlat standartining maqsadi	Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti qaysi asosiy huquqiy hujjatlarga tayanib ishlab chiqilgan va uning talablarini bajarish barcha MTTlar uchun qanday qoidalar asosida amalga oshiriladi?	Maktabgacha ta’lim tizimida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarining beshta asosiy sohasi konsepsiyasining ilmiy-metodologik mohiyati nimadan iborat?	Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda milliy-madaniy qadriyatlar, mintaqaviy an’analar va tabiat-iqlim sharoitlarini uyg‘unlashtirishning bolaning ijtimoiy moslashuvidagi ahamiyatini mustaqil tahlil qiling.
3	**Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari va ijodiy rivojlanish sohasining mazmuni.**	Tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi tushuncha qanday nomlanadi? T.I: soha ,rivojlanish sohasi	Davlat standartining asosiy prinsiplarida tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarining ustuvor deb belgilanishi ta’lim jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatadi? deb hisoblaysiz? T.I.: Tarbiyalanuvchining ustuvorligi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish qoidalari qanday tartibda bajariladi?	6-7 yoshdagi bolalarning umumiy muhim kompetensiyalari (kommunikativ, o‘yin, ijtimoiy va bilish kompetensiyalari) zamonaviy ta’lim paradigmasida bola shaxsining rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Pedagogning bolani kundalik kuzatish jarayonlari va uning individual rivojlanish xaritasini yuritishi ta’lim jarayoniga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritishda qanday hal qiluvchi rol o‘ynashini asoslab bering.
3		Bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qanday atama bilan ifodalanadi? T.I: integratsiya,aloqa	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlarni tashkil etishda namunaviy o‘quv rejaning o‘rni va ahamiyati nimadan iborat? T.I: Namunaviy o‘quv reja	Davlat standartining asosiy prinsiplari sirasiga kiruvchi inkluziv yondashuv va jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash qoidalari qanday talablarni o‘z ichiga oladi?	Bolaning rivojlanish xaritasi va maktabga tayyorgarlik xaritasi yordamida monitoring olib borish tendensiyasi ta’lim sifatini boshqarishda qanday vazifalarni hal qiladi?	Maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish shakllari bola shaxsining har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishida qanday ijtimoiy-pedagogik natijalarni beradi?
3		Bolada o‘z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash hamda mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanish jarayoni nima deb yuritiladi? T.I: faoliyat, refleksiv faoliyat	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida joriy etilgan ichki va tashqi nazorat turlarining farqi nimada? T.I : Ichki va tashqi nazorat	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini nazorat qilish turlari (ichki, tashqi va jamoatchilik nazorati) qaysi organlar tomonidan qanday tartibda tashkil etiladi?	Bolaning rivojlanish xaritasi va maktabga tayyorgarlik xaritasi yordamida monitoring olib borish tendensiyasi ta’lim sifatini boshqarishda qanday vazifalarni hal qiladi?	6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayonida umumiy o‘rta ta’limga bir yillik majburiy tayyorgarlik talablari va ota-onalarning mas’uliyatini yanada oshirish bo‘yicha o‘z konsepsiyangizni bayon eting.
4		«Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi asoslangan hamda maktabgacha ta’lim jarayonida bolalar faoliyatining turli turlarida shakllanadigan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv nima deb ataladi? T.I.: Kompetensiyaviy yondashuv	Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida nutqning bolaning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rnini qanday izohlaysiz? T.I: kommunikativ kompetensiya va nutq	Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish sohasi bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bolaning bajarishi lozim bo‘lgan asosiy talablar va qoidalar nimalardan iborat?	Maktabgacha ta’limni kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyasiga asoslangan holda tashkil etishning ilmiy-metodologik ahamiyati nimadan iborat?	Maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar ularning keyinchalik boshlang‘ich ta’lim bosqichiga muammosiz o‘tishini ta’minlashda qanday hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini mustaqil tahlil qiling.
4	**“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ijodiy rivojlanish sohasi va bolalarda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari.**	Bolaning bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlari majmuini ifodalovchi tushuncha qanday nomlanadi? T.I: kompetensiya, bilim, ko‘nikma,malaka	Ijtimoiy kompetensiyaga ega bo‘lgan bola tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlashda qanday odob-axloq qoidalariga amal qilishi lozim? T.I: Ijtimoiy kompetensiya va tartib-qoidalar	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasining 6-7 yoshli bolalar uchun belgilangan kompetensiyalariga ko‘ra, ularning o‘z hissiyotlarini boshqarishi va murakkab vaziyatlardan chiqish qoidalari qanday tavsiflanadi?	6-7 yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalarini (kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy va bilish) shakllantirish va ularni rivojlanish sohalari bilan integratsiyalash tendensiyasining zamonaviy ta’lim paradigmasidagi o‘rni qanday?	Bolaning o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini har xil hayotiy vaziyatlarda safarbar eta olishi va amalda qo‘llay bilish qobiliyatini rivojlantirishda pedagogning o‘rni qanday baholanadi?
4		Bolaning o‘z-o‘ziga g‘amxo‘rlik qilish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi va kundalik hayotini boshqarish ko‘nikmalarini qaysi kompetensiya o‘z ichiga oladi? T.I: kompetensiya, shaxsiy kompetensiya	Shaxsiy kompetensiyani shakllantirayotgan bola o‘zining kuchli va zaif tomonlarini bilishi uning oldiga maqsad qo‘yishiga qanday yordam beradi? T.I: shaxsiy kompetensiya va maqsad qo‘yish	Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi yakunida bolaning ona tili, chet tili hamda yozish vositalaridan foydalanish ko‘nikmalariga qo‘yiladigan me’yoriy talablar qanday?	Bolaning shaxsiy "Men" konsepsiyasini rivojlantirish jarayonida sog‘lom turmush tarzi va gigiyenik tartib qoidalariga rioya qilish mexanizmlarining uzluksizligini tushuntirib bering.	Rivojlanish sohalari bo‘yicha kompetensiyalarni o‘zaro bog‘liq holda takomillashtirish orqali bolaning har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash mexanizmlarini asoslab bering.
4		Bilim olish, o‘qish va o‘rganish, shuningdek, mustaqil ravishda izlanish va atrof-olamni tushunish uchun kerakli ma’lumotlarni tanlash qobiliyati qanday ataladi? T.I: bilish kompetensiyasi	Bolalar bilish kompetensiyasi orqali atrofdagi yangi obyektlarni o‘rganib, muammolarni hal qilish strategiyalarini qanday ishlab chiqadilar? T.I: bilish kompetensiyasi va muammoni hal qilish	Bilish jarayonining rivojlanishi hamda ijodiy rivojlanish sohalari bo‘yicha 6-7 yoshli bolalarda shakllanishi kerak bo‘lgan amaliy ko‘nikmalar va qoidalar tizimini tushuntirib bering.	Ijodiy rivojlanish sohasida bolaning san’atga qiziqishi, milliy an’analarni qadrlashi va insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini anglash konsepsiyasi qanday amalga oshiriladi?	Insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini maktabgacha yoshdagi bolalarga singdirish ularning kelajakdagi ijtimoiy faolligi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5		Inson qobiliyatlari nikaning samarasi hisoblanadi va ularning shakllanishi qanday jarayonda insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat turlarini o‘zlashtirishga bog‘liq? T.I: ijtimoiy rivojlanish	Vizual qobiliyatlar tuzilmasida uning qo‘llab-quvvatlovchi xususiyati sifatida yuqori hissiyotga asoslangan sezgirlik in’ikoslarning to‘liqligini ta'minlashga qanday ta'sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz? T.I: vizual qobiliyatlar tuzilmasi	Vizual faoliyatni ta'minlovchi va uning fonini tashkil etuvchi hissiy-ruhiy holat hamda tug‘ma moyillikka ega bo‘lgan shaxslarning san'at sohasidagi rivojlanish darajalari qanday qoidalar asosida belgilanadi?	Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligining psixologik asoslari konsepsiyasida kattalar ijodidan farqli ravishda tayyor mahsulot emas, balki ijod jarayonining o‘zi muhim ekanligi tendensiyasi qanday ochib beriladi?	Bolaning vizual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda uning yosh va psixofizik xususiyatlarini inobatga olmaslik (masalan, 3-4 yoshli boladan murakkab uchastkalarni qurishni talab qilish) ta'lim jarayonining samaradorligiga qanday salbiy ta'sir ko‘rsatishini mustaqil tahlil qiling.

5	**Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligining psixologik-pedagogik asoslari va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish omillari.**	I.P. Pavlov insonning yuqori darajadagi asabiy faoliyatining qaysi ikkita turi haqida gapirib, uning badiiy va aqliy rivojlanishini belgilab bergan? T.I: yuqori darajadagi asabiy faoliya	Tasviriy faoliyat jarayonida bola ob'ektlarning shakli, nisbati va rangini tahlil qilib, qiyoslashini ijodkorlik vaqtidagi fikrlash jarayonining faollashuvi sifatida qanday izohlash mumkin? T.I: fikrlash jarayonining faollashuvi	4-5 yoshli bolalarning rasmlarida obyektlarni yerning bir burchagiga yoki barg bo‘ylab tartibsiz joylashtirish (ikkilangan frieze) xususiyatlari qanday pedagogik qoidalar yordamida bosqichma-bosqich bartaraf etiladi?	Maktabgacha ta'lim tizimida o‘yin (syujetli-rolli o‘yinlar) yetakchi faoliyat sifatida bolada tasavvur, kreativlik va ramziy fikrlashni shakllantirish paradigmasining ilmiy mohiyati nimadan iborat?	Oila va bolalar bog‘chasida erkinlik hamda xavfsizlik (xatolardan qo‘rqmaslik) muhitini yaratish bolaning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishda qanday hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini asoslab bering.
5		Pedagogik adabiyotlarda bola qalam, bo‘yoq yoki loyni ilk bor qo‘liga olgan va hali biror narsani tasvirlash rejasi bo‘lmagan boshlang‘ich davr qanday nomlanadi? T.I: pre-vizual davr	Vizual san'atda bolalarning qobiliyatini rivojlantirish faqat o‘qituvchi tomonidan muntazam va tizimli amalga oshirilmasa, bu jarayon nima sababdan tasodifiy tus olib qolishi mumkin? T.I: tizimli o‘qitish va tasodifiylik	Bolalar asarlarida uchraydigan o‘ziga xos "rentgen" (shaffof) chizmalar va mavzu bo‘yicha fikrlarning ko‘pligi kabi xatoliklarni tushuntirishdagi murakkabliklar qaysi ilmiy tushunchalar bilan izohlanadi?	Rivojlantiruvchi moddiy-predmetli muhitni tashkil etish konsepsiyasida resurslarning xilma-xilligi va noan'anaviy texnikalardan (barmoq, gubka, ip yoki tish cho‘tkasi bilan ishlash) foydalanish tendensiyasi qanday ahamiyat kasb etadi?	Bolaga tayyor yechimni bermasdan, muammoli vaziyatlar yaratish orqali uning mustaqil fikrlashi va nostandart yechimlar topish qobiliyatini tarbiyalash usullarini baholang
5		Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash to‘liq shakllanmagan bo‘lib, voqea-hodisalarni o‘z his-tuyg‘ulari orqali qabul qilish xususiyati qanday ataladi? T.I: sinkretizm	Bolalar real hayot va xayolot dunyosini osongina birlashtira olishi ularning elementar tajribalarini yangicha tarzda kombinatsiya qilishiga qanday yordam beradi? T.I: xayolot va kombinatsiya	Pedagogik yondashuvda bolani tayyor qoliplarga solmaslik, uning individualligi va erkinligini tan olish hamda muvaffaqiyat muhitini yaratish qoidalari qanday amalga oshiriladi?	Badiiy faoliyat turlarini integratsiyalash (ertak eshitish, musiqa tinglash va rasm chizishni uyg‘unlashtirish) konsepsiyasi bolaning ijodiy intuitsiyasini kuchaytirishda qanday vazifalarni bajaradi?	Maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uning atrofini boy taassurotlar (tabiat, san'at, ertaklar) bilan to‘ldirish va ota-ona hamda tarbiyachining shaxsiy namunasi qanday pedagogik natijalarni berishiga oid o‘z konsepsiyangizni bayon eting.
6	**Teatr pedagogikasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va maktabgacha ta’lim tizimidagi nazariy asoslari.**	O‘quvchilarning emotsional tajribasi, ijodiy tafakkuri, nutq madaniyati hamda ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv qanday nomlanadi? T.I: teatr pedagogikasi	Ijodkorlik tabiati haqida ma’lumot bering T.I ijodkorlik qobiliyati, irsiyat, faoliyat natijasidagi ijodkorlik	Ijodiy qobiliyatning turli holatlarida paydo bo’lilish omillarini izohlang	Teatr orqali bolalar nutqiy rivojlanishiga qanday yordam beriladi? So‘zlab bering	Teatrlashtirilgan faoliyat bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini qanday rivojlantiradi? Ma’lumot bering
6		Qadimgi Yunonistonda teatr faoliyatining emotsional va ma’naviy tarbiya rolini nazariy jihatdan asoslab bergan Aristotelning tushunchasi nima deb ataladi? T.I: katarsis	Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining vazifalari nimalaradan iborat?	MTT dagi katta guruhlarda ijodiy qobilyatlarni rivojlantirishning eng samarali yo’llari haqida garirib bering?	Bolalarda qanday xususiyatlar kuchli bo’lgani uchun sahnalashtirish orqali tarbiyalash qulay? So ‘zlab bering?	Sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o’rgatish fanining MTM da qo’llanishiga asosiy sabablar nimada? Bu boradagi fikringiz
6		Bolalarning rolli o‘yinlar va sahna ko‘rinishlari orqali o‘z fikrlari va g‘oyalarini samarali ifoda etishini ta’minlovchi ijodiy hamda interaktiv platforma qanday ataladi? T.I: pre-vizual yoki dramatik faoliyat	Bolalarning ijodiy fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirishda tarbiyachining vazifalarini yoriting T.I. nostandart faollikka undash, dunyoga estetik munosabatni shakllantirish	Bolalar ijodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang	Sahna faoliyati jarayonida badiiy didni tarbiyalash haqida ma’lumot bering	Sahnalashtirishda adabiy asarlarni tanlashda qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat? Ma’lumot bering
6		Jon Dyui (John Dewey) tomonidan ta’lim jarayoniga kiritilgan, amaliy harakatlar orqali bilim olishni ta’minlovchi tamoyil qanday nomlanadi? T.I: aoliyat orqali o‘rganish	Bolalarning ijodiy qobiliyatlari va fikrlashlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularning yichimlarini yoritib bering T.I sevimli mashg‘ulotini bilmaslik, ilhomlantirmaslik tanqid qilish	Bolalarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish bosqichlarini tushuntiring	Bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish mexanizimlari haqida ma’lumot bering	Ijodiy o‘yinlar deb qanday o‘yinlarga aytiladi? So‘zlab bering
7	**Jahon va O‘zbekiston bolalar teatrining shakllanish tarixi hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari.**	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taraqqiyotimizning bosh maqsadi sifatida qanday davrni belgilash lozimligini ta’kidlagan? T.I: Uchinchi Renessans	Bolalarning harakatlanayotgan qo‘g‘irchoqlarni ko‘rib hayratlanishi ularda yangi fikr va qarashlarning shakllanishiga qanday turtki bo‘ladi deb o‘ylaysiz? T.I: hayratlanish va ijodiy fikr	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi PQ-6000-son qaroriga asosan O‘zbek milliy qo‘g‘irchoq teatri maqomini berish va hududlarda teatrlar binolarini qurish hamda rekonstruksiya qilish qoidalari qanday vazifalarni hal etishga qaratilgan?	Jahon va O‘zbekiston bolalar teatrining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarida interaktivlik va immersivlik (tomoshabinning ishtirokchiga aylanishi) konsepsiyasining ilmiy-pedagogik mohiyati nimadan iborat?	Qog‘irchoq teatri san’atining yosh avlodni vatanparvarlik, milliy mafkura va do‘stlik ruhida tarbiyalashdagi o‘rnini hisobga olib, Respublikamizda davlat tasarrufidagi alohida marionetika teatrini ochish va kadrlar tayyorlash zaruriyatini mustaqil tahlil qiling.
7		O‘rta Osiyoda an’anaviy qo‘g‘irchoq teatrining kunduzi va kundalik hayotdan olingan real voqealarni aks ettiruvchi turi qanday nomlanadi? T.I: Chodir jamol teatri	An’anaviy teatrda asosiy mas’uliyat va ijro to‘g‘ridan-to‘g‘ri aktyor zimmasida bo‘lgani uning imkoniyatlariga qanday talablar qo‘ygan? T.I: An’anaviy va zamonaviy teatr	O‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining vujudga kelishida qadimgi animistik e’tiqodga tayanuvchi marhumlarni eslash marosimlari va niqob taqib harakat qilish qoidalari qanday zamin tayyorlagan?	Sobiq Ittifoq davrida (1920-yillar) Natalya Sats kabi rejissyorlar tomonidan asos solingan professional Yosh tomoshabinlar teatrlari (YTT) tarmog‘ini yaratish paradigmasi bolalar teatri metodologiyasiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?	Zamonaviy bolalar teatrlarida ertaklardan tashqari o‘smirlar hayotidagi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolarni (bulling, yolg‘izlik, virtual olamga qaramlik) yoritishga o‘tish tendensiyasining tarbiyaviy ahamiyatini asoslab bering.
7		1965-yilda tashkil etilgan va butun dunyo bolalar teatrlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi xalqaro assotsiatsiya qanday ataladi? T.I: ASSITEJ	"Chodir xayol" teatrining "Chodir jamol"ga nisbatan sahna tuzilishi va qo‘g‘irchoqlarni harakatga keltirish jihatidan qanday o‘ziga xos murakkabliklari bor? T.I: Chodir xayol	O‘zbekistonda professional bolalar teatrining 1928–1930-yillarda tashkil topishi hamda E. Hamroyev, Sh. Sa’dulla va Zulfiyaning asarlari asosida milliy bolalar dramaturgiyasining ilk poydevorini qo‘yish jarayonlari qanday qoidalar asosida amalga oshirilgan?	Sahnada 3D mapping, gologrammalar va vizual effektlar kabi yangi multimedia texnologiyalaridan foydalanish tendensiyasining gadjetlarga o‘rgangan zamonaviy bolalar diqqatini jalb qilishdagi o‘rni qanday?	Teatr truppalarida dramaturg, rejissyor, rassom va aktyorlarning teng iste’dod asosida birlashishi kelgusidagi teatr taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tanqidiy nuqtai nazardan baholang.

7		0 dan 3 yoshgacha bo‘lgan yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan, tomoshabin bola ishtirokchisiga aylanadigan zamonaviy teatr yo‘nalishi nima deb yuritiladi? T.I: Beby-teatr	Teatr san’atida "Ustoz-shogird" an’anasining yo‘qolib borishi milliy va umuminsoniy qadriyatlarni sintezlay oladigan ijodkorlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi? T.I: Ustoz-shogird an’anasi	Marionetika qo‘g‘irchoqlarini yasash va ularni sahnada boshqarishda aktyordan talab qilinadigan yuksak mahorat hamda maxsus sahna jihozlariga qo‘yiladigan me’yoriy talablar qanday izohlanadi?	O‘zbekistonda "Alpomish" va "Go‘ro‘g‘li" kabi milliy dostonlar hamda xalq ertaklarini zamonaviy talqin va rejissyorlik yechimlarida sahnalashtirish konsepsiyasi qanday amalga oshirilmoqda?	Bolalar teatrini shunchaki ko‘ngilochar maskan emas, balki bolaning emotsional intellektini rivojlantiruvchi va ezgulikka o‘rgatuvchi muhim ijtimoiy institut sifatida yanada takomillashtirish bo‘yicha o‘z mualliflik konsepsiyangizni bayon eting.
8	**Teatr san’atining maktabgacha yoshdagi bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari.**	O‘quvchilarga bilim berish bilan birgalikda ularning ma’naviy olamini boyitish va teatr san’atiga qiziqtirish maqsadida amalga oshiriladigan jarayon qanday ataladi? T.I: estetik tarbiya	Xalqimizning "bola boshidan" degan naqli bolalarni teatr san’ati orqali estetik tarbiyalashni qaysi ta’lim bosqichidan boshlash zarurligini qanday izohlaydi? T.I: "Bola boshidan" tamoyili	Teatrshunos Sh.Minovarovning fikricha, bolalar teatri har xil spektakllarni sahnalashtirishda qanday fanlar va sohalardan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim bo‘lgan qoidalarga tayanadi?	Teatr pedagogikasini umumiy pedagogik nazariyaning alohida tarmog‘i sifatida ta’lim jarayoniga integratsiyalash konsepsiyasining o‘quvchilar kamolotidagi o‘rni qanday?	O‘zbekiston umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalariga Germaniya tajribasidagi kabi maxsus "teatr pedagogi" lavozimini joriy etishning afzalliklari va amaliy ahamiyatini mustaqil tahlil qiling.
8		O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi o‘zbek milliy san’atida teatr faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan farmoni qanday raqam ostida qabul qilingan? Tayanch ibora: PF-600-sonli Farmon	Germaniyadagi bolalar teatrlarida chiptalarning an’anaviy qog‘oz emas, balki o‘yinchoq ko‘rinishida bo‘lishi o‘quvchini teatr olamiga olib kirishga qanday ta’sir ko‘rsatadi? T.I: spektakl chiptasi va o‘yinchoq	Teatr pedagogi o‘z faoliyatini tashkil etishda darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazish, teatr etikasini o‘rgatish va sinf o‘quvchilarining psixologiyasini o‘rganish qoidalari asosida qanday ish olib boradi?	Abdullayeva va Sobirov (2020) tadqiqotlariga ko‘ra, teatr san’atining o‘zini kashf etish va individual ifodani rivojlantirish uchun ilg‘or ta’lim vositasi sifatidagi paradigmatik ahamiyati nimadan iborat?	Sinf rahbarining asosiy dars mashg‘ulotlarini, teatr pedagogining esa darsdan tashqari ma’naviy-estetik ishlarni birgalikda olib borishi bolaning aqliy va axloqiy tarbiyasiga qanday hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishini asoslab bering.
8		Qo‘g‘irchoq teatrining hujjatda keltirilgan to‘rt asosiy turidan biri bo‘lgan, aktyorlarning qo‘liga kiyib o‘ynatiladigan turi nima deb nomlanadi? T.I: qo‘g‘irchoq teatri turlari	Teatr pedagogining spektakldan bir kun o‘tib o‘quvchilar bilan suhbat o‘tkazib, kichik sahnalarni ijro ettirishi rasmiyatchilikdan qanday farq qiladi? T.I: Teatr pedagogining vazifasi	Teatr pedagogi o‘quvchilar bilan birgalikda teatrga borishdan oldin pyesani sinfda o‘qib berish, ijobiy va salbiy qahramonlarni tahlil qilish qoidalarini qanday ketma-ketlikda bajaradi?	Teatr pedagogikasining ta’lim sohasidan tashqari korporativ treninglar, ijro san’ati muassasalari va jamoat dasturlarida ijtimoiy o‘zgarishlar vositasi sifatida qo‘llanilish tendensiyasi qanday tavsiflanadi?	Teatr san’ati orqali o‘quvchilarda samarali muloqot, tanqidiy fikrlash, empatiya va milliy mentalitetga yot g‘oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish mexanizmlarini tanqidiy nuqtai nazardan baholang.
8		Xorijiy davlatlar (jumladan, Germaniya) tajribasida maktablarda ta’lim beruvchi maxsus lavozim qanday nomlanadi? T.I: Teatr pedagogi	“Teatr pedagogi – ota-ona – sinf o‘qituvchisi” hamkorligidagi samimiy munosabatlar o‘quvchilarda qanday axloqiy sifatlarni shakllantiradi? T.I: Uch tomonlama hamkorlik	Teatr pedagogi o‘quvchilar bilan olib boradigan mashg‘ulot mavzulari va repertuarlar dinamikasini oddiylikdan professionallikka qadar shakllantirish jarayonidagi me’yoriy qoidalarni tushuntiring.	O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-axloqiy tarbiya uchun teatrni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati konsepsiyasining amaliy ta’lim jarayoniga ta’siri qanday ochib beriladi?	Bolalarni teatr san’atiga oshno qilish orqali ularni kelgusida milliy va asriy an’analarga sodiq, ma’nan yetuk shaxs sifatida yetishtirish bo‘yicha o‘z mualliflik konsepsiyangizni bayon eting.
9		Bolalarni voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi va turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatuvchi jarayon nima deb ataladi? T.I: estetik tarbiya	Maktabgacha yosh bolaning shaxsiyati shakllanishida nima sababdan eng muhim poydevor bosqichlardan biri sifatida e’tirof etiladi? T.I: Podyevor bosqich	Jamiyatning estetik madaniyati va bola shaxsining estetik madaniyatini shakllantirishda madaniy merosni ijodiy o‘zlashtirish qoidalari qanday talablarga tayanadi?	Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiyani shakllantirishda teatr faoliyatini integratsiya qilish konsepsiyasining ilmiy-pedagogik ahamiyati nimadan iborat?	Maktabgacha yoshda estetik tarbiyaning izchil va maqsadli tashkil etilishi bola shaxsining ichki dunyosi boyishida va kelgusida hayotni go‘zallashtirishga intilishida qanday hal qiluvchi rol o‘ynashini mustaqil tahlil qiling.
9	**Maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik tarbiyani shakllantirishda teatr faoliyatining o‘rni va ahamiyati.**	Atrof voqelikdagi buyumlar va hodisalarning estetik mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirish jarayoni qanday nomlanadi? T.I: estetik idrok	Tarbiya nazariyasidagi estetika va badiiy tarbiya tushunchalarining o‘zaro farqi va ularning keng ma’nosi nimada namoyon bo‘ladi? T.I: Estetik va badiiy tarbiya	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida estetik tarbiyani (tasviriy san’at, musiqa, adabiyot, tabiat, milliy san’at) amalga oshirishning uslubiy qoidalari qanday tartibda tashkil etiladi?	Shaxsning estetik ongini, ehtiyojlari va munosabatlarini rivojlantirish orqali voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘zgartirishga qodir avlodni tarbiyalash paradigmasi qanday tavsiflanadi?	Pedagogning didi, uslubiy tayyorgarligi va ijodkorligi hamda oila bilan hamkorlik qilinmasa, estetik tarbiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan bo‘shliqlarni tanqidiy nuqtai nazardan baholang.
9		Shaxsda uning shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlarining qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladigan, estetik baholash mezoni bo‘lib xizmat qiluvchi murakkab hodisa nima deb yuritiladi? T.I: Estetik did	Oila bolaning birinchi estetik maktabi ekanligini inobatga olsak, MTT va oilaning hamkorligi estetik tarbiyaga qanday ta’sir ko‘rsatadi? T.I: MTT va oila hamkorligi	Estetik idrok va estetik mulohazalarni shakllantirish jarayonida shaxsning xulq-atvori, bilim saviyasi va estetik tajribasiga qo‘yiladigan me’yoriy qoidalar qanday tushuntiriladi?	Estetik ideal tushunchasining shaxs dunyoqarashini shakllantirishdagi undovchi omil sifatidagi tendensiyasi qanday yuzaga chiqadi?	Estetik zavqlanish va ijodiy faoliyat insonning mehnat ilhomini jo‘sh urdirishi hamda uning turmush sharoitini bezashidagi ijtimoiy-pedagogik ta’sirini asoslab bering.
9		Shaxsning buyum yoki hodisaga estetik baho berish munosabatini subyektiv boshdan kechirishi va ma’naviy lazzatlanishida ifodalanadigan tushuncha qanday ataladi? Tayanch I: Estetik tuyg‘u	Bolalarda estetik qiziqishning paydo bo‘lishi ularning atrof-hayotga estetik va amaliy munosabatlarida qanday belgilar orqali namoyon bo‘ladi? T.I: stetik qiziqish	Estetik baho berish jarayonida insoniyat tarixi davomida hosil qilingan estetik qoidalar va g‘oyalar bilan qiyoslash qoidalari qanday amalga oshiriladi?	Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan maktabgacha ta’lim tizimida estetik ta’lim va tarbiyaga ustuvor vazifa sifatida e’tibor qaratish konsepsiyasining amaliy ijrosi qanday ta’minlanmoqda?	Bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida estetik jihatdan barkamol etib tarbiyalash bo‘yicha o‘z mualliflik konsepsiyangizni bayon eting.
10	**Bolalar teatr faoliyatida sahna madaniyatini shakllantirishning**	Nafaqat san’atning namoyish etiladigan makoni, balki ijrochi va tomoshabin o‘rtasidagi ruhiy va hissiy bog‘liqlikni o‘rnatadigan muqaddas maydon qanday ataladi? T.I: Sahna ,teatr	Musiqiy chiqish nima sababdan bir tomonlama jarayon emas, balki ijrochi va tinglovchi o‘rtasidagi yashirin muloqot sifatida baholanadi? T.I: Yashirin muloqot	A.V. Vasilyevning “Sahna madaniyatining asosiy tamoyillari” asarida san’atkorlarning sahnadagi harakati va auditoriya bilan o‘zaro bog‘lanish usullari qanday qoidalar asosida yoritib berilgan?	Zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn konsertlarning rivojlanishi sharoitida sahna madaniyatining yangi qamrov kasb etish tendensiyasi qanday namoyon bo‘lmoqda?	Savol: Musiqiy ijrochilikda texnik mahorat va sahna madaniyatining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash san’atkorning professional qiyofasini shakllantirishda qanday hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini mustaqil tahlil qiling.
10		Musiqiy chiqish va ijro san’atining muvaffaqiyatini belgilab beruvchi, tomoshabinni ilk daqiqalardan jalb etadigan muhim mezon nima deb nomlanadi? TI: Sahna madaniyati	Tomoshabinning ko‘pincha dastlab ijrochining tashqi qiyofasi orqali unga baho berishi sahna madaniyatida qanday ahamiyat kasb etadi? T.I: Tashqi qiyofa va baho	Ervin Goffmanning “Presentation of Self in Everyday Life” asarida insonlarning o‘zlarini omma oldida namoyon etishi va sahna san’ati bilan bog‘liq qanday qoidalar tahlil qilingan?	Sahna madaniyatini faqat tashqi qiyofa emas, balki ijrochining ichki madaniyati, estetik didi va auditoriya bilan muloqotga kirishish qobiliyatining mujassamlanishi sifatida tushunish konsepsiyasining ilmiy mohiyati nimadan iborat?	Musiqa ta’limi jarayonida yosh ijrochilarga auditoriya oldida o‘zini tutish va o‘z chiqishlarini samarali tashkil etishni o‘rgatish bo‘yicha uslubiy yondashuvlarni tubdan takomillashtirish zaruriyatini asoslab bering.

10	**nazariy va metodik asoslari.**	Zamonaviy raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida paydo bo‘lgan, onlayn konsertlar va raqamli chiqishlar amalga oshiriladigan muhit qanday nomlanadi? T.I: virtual sahna	Sahna muhitining o‘zi – yoritish, dekoratsiyalar va texnik jihozlanish tinglovchida hissiy taassurot yaratishga qanday ta’sir ko‘rsatadi? T.i: Vizual estetika	G.R. Muratovning virtual sahnalarda ijro san’ati va onlayn konsertlarning auditoriyaga ta’sirini tahlil qilishdagi qoidalari qanday mazmunga ega?	Musiqa ta’limi tizimida sahna madaniyati bo‘yicha maxsus kurslar va amaliy mashg‘ulotlarni keng joriy etish paradigmasi yosh ijrochilarning shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?	Virtual sahnalar va onlayn formatlarning ommalashuvi sharoitida san’atkorning ekran qarshisida o‘zini tutishi va sahna dizayniga e’tibor qaratishining ahamiyatini tanqidiy nuqtai nazardan baholang.
10		Sahna faqatgina ijro maydoni emas, balki o‘ziga xos odob-axloq, mas’uliyat va nimani talab qiluvchi muhit hisoblanadi? T.I: Estetik did	Yosh musiqachilarning ko‘proq texnik mahoratni oshirish bilan band bo‘lib, sahna madaniyatiga kam e’tibor qaratishi ularning faoliyatiga qanday ta’sir qiladi? T.I: musiqa ta’limi va texnik mahorat	Professional san’atkorlarning auditoriyaga nisbatan qanday qarash kerakligi, harakatlar va tomoshabin e’tiborini jalb qilish qoidalari qanday o‘rganiladi?	Sahnadagi chiqishlarni faqat musiqaviy emas, balki vizual jihatdan ham jozibador qilish orqali auditoriya bilan mustahkam aloqa o‘rnatish tendensiyasi qanday amalga oshiriladi?	Sahna madaniyatini shunchaki ijroni namoyish etish vositasi emas, balki san’atkorning ichki madaniyati va dunyoqarashining yorqin ifodasi sifatida rivojlantirish bo‘yicha o‘z mualliflik konsepsiyangizni bayon eting.